

## ZAMONAVIY O'QITISH TEXNOLOGIYALARI ORQALI O'QITUVCHILARNING KASBIY-KREATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

*Amanyo'lov Sindor Faxriddin o'g'li*

### **A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tayanch doktoranti**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy o'qitish texnologiyalari – xususan, keys-stadi (case-study), muammoli ta'lim, loyiha asosidagi ta'lim, o'yin va raqamli texnologiyalar – vositasida o'qituvchilarning kasbiy-kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Mavzu davlat va huquq asoslari fani misolida ko'rib chiqilib, o'qituvchining kasbiy mahoratini oshirishda interaktiv metodlarning samaradorligi asoslab berilgan. Shuningdek, kreativ kompetensiyani shakllantiruvchi pedagogik texnologiyalarni ta'lim amaliyotiga tatbiq etishning ustuvor yo'nalishlari tavsiya sifatida ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** kasbiy-kreativ kompetensiya, zamonaviy o'qitish texnologiyalari, davlat va huquq asoslari, keys-stadi, muammoli ta'lim, loyiha asosidagi ta'lim, interaktiv metodlar, pedagogik innovatsiya, raqamli ta'lim, kreativlik.

**Abstract.** This article provides a scientific and theoretical analysis of the opportunities for developing the professional and creative competencies of teachers through modern teaching technologies – in particular, case-study, problem-based learning, project-based learning, gamification, and digital technologies. The topic is examined using the subject of Fundamentals of State and Law as an example, substantiating the effectiveness of interactive methods in enhancing teachers' professional excellence. Additionally, priority directions for applying competency-forming pedagogical technologies in educational practice are proposed.

**Keywords:** professional-creative competency, modern teaching technologies, fundamentals of state and law, case-study, problem-based learning, project-based learning, interactive methods, pedagogical innovation, digital education, creativity.

**Аннотация.** В данной статье проводится научно-теоретический анализ возможностей развития профессионально-творческих компетенций учителей посредством современных образовательных технологий – в частности, кейс-стади, проблемного, проектного обучения, игровых и цифровых технологий. Тема рассматривается на примере предмета «Основы государства и права».

**Ключевые слова:** профессионально-творческая компетенция, современные образовательные технологии, основы государства и права, кейс-стади, проблемное обучение, проектное обучение, интерактивные методы, педагогическая инновация, цифровое образование, креативность.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini isloh qilish va uni xalqaro standartlarga moslashtirish davom etayotgan bir paytda pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi va ijodiy salohiyatini oshirish muhim ustuvor vazifaga aylandi. Mamlakatimiz Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha

rivojlantirish konsepsiyasi”ida pedagoglarning zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish eng dolzarb vazifalar sirasida belgilangan.

Ayniqsa, “Davlat va huquq asoslari” fani o'qituvchilari uchun zamonaviy ta'lim metodlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu fan nafaqat huquqiy bilimlarni, balki o'quvchilarda fuqarolik mas'uliyati, tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantiradi. Shuning uchun o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi faqat bilim berish doirasida emas, balki o'quvchilarda mustaqil, kreativ va muammoga yo'naltirilgan tafakkurni rivojlantirish qobiliyatini ham o'z ichiga olishi lozim.

UNESCO ning 2023-yildagi “Ta'limning kelajagi” hisobotida qayd etilishicha, XXI asrda muvaffaqiyatli pedagog bo'la olish uchun o'qituvchi faqat bilim uzatuvchi emas, balki o'quvchining bilish jarayonini boshqaruvchi, ijodiy muhitni yaratuvchi va texnologiyadan oqilona foydalanadigan mutaxassis bo'la olishi zarur.

Ushbu maqolada biz o'z oldimizga quyidagi maqsadlarni qo'ydik: birinchidan, zamonaviy ta'lim texnologiyalarining o'qituvchining kasbiy-kreativ kompetensiyasini rivojlantirishdagi rolini ilmiy jihatdan asoslash; ikkinchidan, ushbu metodlarni davlat va huquq asoslari fanini o'qitish amaliyotiga tatbiq etish imkoniyatlarini ko'rsatib berish; uchinchidan, kreativ kompetensiyani malaka oshirish tizimiga integratsiya qilishning amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish.

**Asosiy qism.** Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy-tarixiy metod, tizimli yondashuv, ekspert baholash usuli, shuningdek pedagogik amaliyotni kuzatish va umumlashtirish. Milliy normativ-huquqiy hujjatlar, davlat ta'lim standartlari, malaka oshirish o'quv dasturlari, xorij ilmiy nashrlari va zamonaviy ta'lim texnologiyalari bo'yicha monografiyalar tadqiqot manbalari sifatida o'rganildi.

### **Kasbiy-kreativ kompetensiya tushunchasi**

“Kreativlik” va “kasbiy kompetensiya” tushunchalarining birikishi XX asrning ikkinchi yarmida pedagogika fanida shakllana boshladi. J.P. Guilford kreativlikning asosiy xususiyatlarini quyidagicha ta'riflaydi: muammolarni sezish, fikrlar moslashuvchanligi (flexibility), fikrlarning o'ziga xosligi (originality) va yechimlar serobliligi (fluency). Ushbu xususiyatlar o'qituvchining kasbiy faoliyatida o'ta zarur, chunki har bir dars – bu amalda o'ziga xos muammoni yechish jarayoni.

L.S.Shulman esa o'qituvchining kasbiy kompetensiyasida Pedagogical Content Knowledge (PCK) – pedagogik kontent bilimni markaziy element sifatida belgilaydi: o'qituvchi fanning mazmunini pedagogik jihatdan qayta shakllantirishi, ya'ni murakkab tushunchalarni o'quvchilar uchun qulay usulda yetkazishi zarur. Davlat va huquq asoslari fanida bu ayniqsa muhim, chunki huquqiy normalar va qonunchilik tushunchalari o'ta murakkab bo'lib, ularni o'smirlar uchun tushunarli, qiziqarli va amaliy tarzda o'rgatish maxsus kreativ yondashuvni talab qiladi.

O'zbekistonlik tadqiqotchi N.A.Muslimov kasbiy kompetentlikni “mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'l-gan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlarning integratsiyasi” sifatida ta'riflaydi. Biz ushbu ta'rifga kreativlik komponentini ham qo'hshni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz: zamonaviy o'qituvchi nafaqat bilimli, balki ijodiy, innovatsion va moslashuvchan bo'la olishi kerak.

Shunday qilib, biz quyidagi ta'rifni taklif etamiz: o'qituvchining kasbiy-kreativ kompetensiyasi – bu pedagogning o'z fani doirasida huquqiy, pedagogik, metodologik bilimlarni ijodiy usullar, zamonaviy texnologiyalar va moslashuvchan yondashuv bilan birlashtirgan holda o'quvchilarda chuqur tafakkur, mustaqillik va huquqiy ongni shakllantira olish qobiliyatidir.

### **Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va kreativ kompetensiya**

Tadqiqot davomida biz davlat va huquq asoslari fanida kasbiy-kreativ kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi to'rtta asosiy texnologiyani ajratib ko'rsatdik:

**1. Keys-stadi (Case-Study) metodi.** Keys-stadi metodi 1870-yilda Garvard yuridik maktabida paydo bo'lib, keyinchalik butun dunyo ta'lim tizimlariga kirib keldi. Bu metodda o'quvchilar real hayotiy yoki huquqiy vaziyatlarni tahlil qilishadi, turli manfaatdor tomonlarning nuqtai nazarini ko'rib chiqishadi va optimal yechim topishga harakat qilishadi. Davlat va huquq asoslari fanida keys-stadi o'quvchilarga real sud jarayonlari, fuqarolik nizolari yoki konstitutsiyaviy masalalarni tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa o'qituvchidan mavzuning pedagogik jihatdan to'g'ri shakllantirilishini, ya'ni maxsus kreativ kompetensiyani talab qiladi.

**2. Muammoli ta'lim (Problem-Based Learning – PBL).** PBL yondashuvi asos sifatida haqiqiy hayotiy muammo yoki masalani oladi va o'quvchilarni o'zlari yechim izlashga yo'laltiradi. H.S. Barrows va R.M. Tamblyn tomonidan 1980-yilda ishlab chiqilgan ushbu yondashuv bo'yicha o'qituvchi bilim beruvchi emas, balki bilish jarayonini yo'llovchi (facilitator) sifatida namoyon bo'ladi. Huquqiy ta'limda PBL quyidagicha ko'rinishi mumkin: o'quvchilarga “Fuqaro o'z huquqlari buzilganini sezsa, qanday qadamlar qo'yishi kerak?” degan muammo beriladi va ular Konstitutsiya, Fuqarolik kodeksi, Ma'muriy kodeks asosida o'zlari yechim topishadi. Bu jarayon o'qituvchidan muammoni mahorat bilan konstruksiya qilish, ya'ni kreativ kompetensiyani talab etadi.

**3. Loyiha asosidagi ta'lim (Project-Based Learning).** Bu yondashuv bo'yicha o'quvchilar real yoki simulyatsion loyihani amalga oshiradilar. Davlat va huquq asoslari fanida loyiha asosidagi ta'limga quyidagi misollarni keltirish mumkin: “Mening huquqlarim” nomli o'quvchi gazetasini tayyorlash; mahalla kengashiga murojaatlar tahlili; shahar hokimligiga fuqarolik tashabbusi taklifi tuzish. Bu metodda o'qituvchi loyihani pedagogik jihatdan rejalashtirishi, jamoaviy ishni boshqarishi va natijani real kontekstga yo'laltirishi kerak.

**4. Raqamli ta'lim texnologiyalari.** Hozirgi kunda raqamli ta'lim vositalari (Kahoot!, Quizizz, Google Classroom, Mentimeter, Padlet) o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi va faol ishtirokini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2022-2026-yillarga mo'ljallantilgan yangi O'zbekiston strategiyasi”ida ta'limni raqamlashtirish, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Davlat va huquq asoslari fanida raqamli texnologiyalar yordamida huquqiy testlar, interaktiv davlat tuzilmasi sxemalari, sud simulyatsiyalari yaratish mumkin.

**1-jadval.**

**Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va kasbiy-kreativ kompetensiya bog'liqligi**

<b>Ta'lim texnologiyasi</b>	<b>Kreativ kompetensiya turi</b>	<b>Davlat va huquq asoslarida misol</b>	<b>O'qituvchi roli</b>
Keys-stadi	Huquqiy tahlil, tanqidiy tafakkur	Sud jarayonini tahlil qilish	Moderator, yo'lovchi
Muammoli ta'lim (PBL)	Muammoni aniqlash, yechim topish	Fuqarolik nizosini hal qilish	Fasilitator
Loyiha asosidagi ta'lim	Jamoaviy ijodkorlik, loyihalash	Mahalla tashabbusi loyihasi	Koordinator, nazoratchi
Raqamli texnologiyalar	Axborot-kommunikatsion, interaktiv	Huquqiy viktorina (Kahoot!)	Innovator, dizayner
Sokratik suhbat	Kritik fikrlash, savol berish san'ati	Konstitutsiya moddalarini muhokama	Intellectual yo'lovchi

**Kasbiy-kreativ kompetensiyani rivojlantirishning tarkibiy modeli**

Tadqiqot davomida biz davlat va huquq asoslari o'qituvchisining kasbiy-kreativ kompetensiyasini rivojlantirishda to'rtta asosiy komponent o'zaro bog'liq tarzda faoliyat ko'rsatishini aniqladik:

**Motivatsion-qadriyatli komponent.** O'qituvchining yangi texnologiyalarni o'zlashtirish va ijodiy faollikni saqlab qolish uchun ichki motivatsiya va kasbiy qadriyatlarga ega bo'l-ishi lozim. A.Maslou ta'kidlaganidek, ijodkorlik o'z-o'zini namoyon etish ehtiyojidan kelib chiqadi. O'qituvchi o'z kasbini xizmat ko'rsatish emas, balki jamiyatga hissa qo'shish sifatida anglashi – bu kasbiy-kreativ kompetensiyaning asosi hisoblanadi.

**Kognitiv-innovatsion komponent.** O'qituvchi huquqiy, pedagogik va texnologik bilimlarni uzluksiz yangilab borishi, xorijiy ilg'or tajribani o'rganishi va milliy ta'lim tizimiga moslashtirib qo'llashi zarur. John Dewey ta'limning mohiyatini tajriba orqali bilish jarayoni sifatida ta'riflagan bo'lib, bu tamoyil zamonaviy o'qituvchi uchun ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

**Amaliy-texnologik komponent.** O'qituvchi zamonaviy o'qitish texnologiyalarini nafaqat bilishi, balki ularni dars jarayonida maqsadli va ustamonlik bilan qo'llashi zarur. Bu komponent keys-stadi yaratish, loyiha rejasini tuzish, raqamli vositalardan foydalanish kabi amaliy ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.

**Refleksiv-rivojlantiruvchi komponent.** O'qituvchi o'z darslarini tahlil qilishi, o'quvchilar qayta aloqasini hisobga olishi va kasbiy o'sish rejasini tuzishi

zarur. D.Schön “refleksiv amaliyotchi” tushunchasini kiritib, o'qituvchining o'z tajribasini tanqidiy ko'zdan kechira olish qobiliyatini kasbiy o'sishning asosi sifatida belgilagan.

**2-jadval.**

**Kasbiy-kreativ kompetensiyaning tarkibiy modeli (Davlat va huquq asoslari fani misolida)**

<b>Komponent</b>	<b>Mazmun</b>	<b>Zamonaviy ta'lim texnologiyasi</b>	<b>Natija</b>
Motivatsion-qadriyatli	Kasbga muhabbat, innovatsiyaga tayyor bo'l-ish	Xorijiy tajriba bilan tanishish, ilmiy-amaliy konferensiyalar	Kasbiy faollikni oshirish
Kognitiv-innovatsion	Huquqiy, pedagogik, texnologik bilimlar	Tadqiqotga asoslangan ta'lim, PBL	Chuqur bilim bazasi shakllantirish
Amaliy-texnologik	Zamonaviy metodlarni qo'll-ash	Keys-stadi, raqamli vositalar	Samarali dars tashkil etish
Refleksiv-rivojlantiruvchi	O'z-o'zini tahlil qilish, kasbiy o'sish	Portfel, refleksiya kundaligi	Uzluksiz kasbiy takomil

**Malaka oshirish tizimida kreativ kompetensiyani shakllantirish**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son Qarori asosida pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi takomillashtirilmoqda. Mavjud malaka oshirish dasturlarida zamonaviy o'qitish texnologiyalari bo'yicha modullar mavjud bo'l-sa-da, kreativlik komponentiga alohida va tizimli tarzda e'tibor qaratilishi zarur.

Biz malaka oshirish dasturlarida kasbiy-kreativ kompetensiyani rivojlantirish uchun quyidagi modular yondashuvni taklif etamiz:

**I-modul:** Kreativ pedagog – kim u? (6 soat) – kreativlikning nazariy asoslari, o'qituvchining ijodiy salohiyatini aniqlash va rivojlantirish yo'llari.

**II-modul:** Zamonaviy o'qitish texnologiyalari (16 soat) – PBL, keys-stadi, loyiha asosidagi ta'lim, Sokratik suhbat metodlari amaliy ko'nikmalari.

**III-modul:** Raqamli ta'lim va sun'iy intellekt (10 soat) – Kahoot!, Quizizz, Google Classroom, ChatGPT kabi vositalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish.

**IV-modul:** Davlat va huquq asoslarida kreativ ta'lim (10 soat) – huquqiy vaziyatlar yaratish, kvestlar, sud simulyatsiyalari, fuqarolik tashabbusi loyihalari.

**V-modul:** Refleksiya va kasbiy portfel (6 soat) – o‘z-o‘zini baholash, tajriba almashish, individual kasbiy rivojlanish rejasini tuzish.

**3-jadval.**

**Malaka oshirish dasturiga tavsiya etilgan modullar (Davlat va huquq asoslari fani uchun)**

<b>№</b>	<b>Modul nomi</b>	<b>Soat</b>	<b>Kasbiy-kreativ kompetensiya turi</b>	<b>O‘qitish usuli</b>
1	Kreativlik nazariyasi va pedagog ijodkorligi	6	Motivatsion-qadriyatli	Trening, refleksiya
2	Zamonaviy pedagogik texnologiyalar	16	Amaliy-texnologik	Seminar, amaliy mashg‘ulotlar
3	Raqamli ta'lim va sun'iy intellekt	10	Axborot-kommunikatsion	Laboratoriya ishi
4	Huquqiy ta'limda kreativ metodlar	10	Kognitiv-innovatsion	Keys-stadi, kvestlar
5	Refleksiya va kasbiy portfel	6	Refleksiv-rivojlantiruvchi	Portfel, guruh muhokamasi
	Jami	48		

**Muhokama**

Olib borilgan tahlillar qator muhim xulosalar va muhokama mavzularini keltirib chiqaradi. Birinchidan, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, davlat va huquq asoslari o‘qituvchilari orasida zamonaviy ta’lim texnologiyalari, xususan keys-stadi va loyiha asosidagi ta’lim bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar hali yetarli darajada shakllanmagan. Bunning asosiy sababi – malaka oshirish dasturlarida ushbu metodlarga ajratilgan vaqt va e’tibor yetarli emasligi.

Ikkinchidan, xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlar (AQSh, Finlandiya, Singapur) ta’lim tizimlarida o‘qituvchining kreativ kompetensiyasi alohida standart sifatida belgilangan va uni baholashning maxsus vositalari ishlab chiqilgan. OECD ning “TEALS 2019” tadqiqotiga ko‘ra, o‘qituvchilari yuqori kreativ kompetensiyaga ega bo‘l-gan maktablarda o‘qituvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 30–40% ga yuqori bo‘l-i.

Uchinchidan, kreativ kompetensiyani rivojlantirish jarayonida o'qituvchiga qo'l-lab-quvvatlash tizimi (mentorlik, peer-coaching, kasbiy hamjamiyatlar) muhim rol o'ynaydi. Vygotskiy'ning "Yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga ko'ra, o'qituvchi o'zidan yuqori darajadagi hamkasblar bilan ishlash orqali o'zini yanada rivojlantirishi mumkin.

To'rtinchidan, davlat va huquq asoslari fanining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, kreativ ta'lim metodlarini qo'llashda huquqiy aniqlik va pedagogik erkinlik o'rtasidagi muvozanatni saqlash muhim masala sifatida ko'tariladi. O'qituvchi o'quvchilarga ijodiy muhit yaratayotganda, qonunchilik normalarining to'g'ri talqin qilinishini ham ta'minlashi lozim.

### **Tavsiyalar**

Tadqiqot natijalari va muhokama asosida biz quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari suramiz:

**Kreativ kompetensiya standartini joriy etish.** Davlat va huquq asoslari o'qituvchilari uchun maxsus kasbiy-kreativ kompetensiya standarti ishlab chiqilib, u Davlat ta'lim standartlariga kiritilishi va malaka oshirish kurslarida baholash mezonlari sifatida qo'l-lanilishi zarur.

**Keys-bank tizimini shakllantirish.** O'zbekiston qonunchiligi va huquqiy amaliyotiga asoslangan milliy keys-stadi bankini yaratish – o'qituvchilar uchun huquqiy ta'limda foydalanish uchun tayyor vaziyatlar to'lami. Bu banka Sud departamenti, Adliya vazirligi va pedagogika institutlari hamkorligida shakllantirilishi mumkin.

**Raqamli kreativ muhitni ta'minlash.** Barcha umumta'lim maktablarida o'qituvchilarning raqamli ta'lim vositalaridan foydalanishini ta'minlovchi texnik baza va internet aloqasini kengaytirish, shuningdek o'qituvchilar uchun maxsus raqamli pedagogik platforma yaratish.

**Kasbiy hamjamiyatlar tizimini kuchaytirish.** Davlat va huquq asoslari fani o'qituvchilari uchun milliy professional hamjamiyat tashkil etish, unda tajriba almashish, kreativ metodlarni namoyish etish, hamkorlik loyihalari olib borish imkoniyatlarini ta'minlash.

**Xorijiy hamkorlikni kengaytirish.** Finlandiya, Singapur va Janubiy Koreya kabi ta'lim tizimi rivojlangan davlatlarning pedagogika institutlari bilan hamkorlik o'rnatish, o'qituvchilar uchun xalqaro tajriba almashish dasturlari joriy etish.

### **Xulosa**

Ushbu tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

**Birinchi**dan, zamonaviy ta'lim texnologiyalari – keys-stadi, muammoli ta'lim, loyiha asosidagi ta'lim va raqamli vositalar – davlat va huquq asoslari o'qituvchisining kasbiy-kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning eng samarali vositasi hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar o'qituvchini passiv bilim uzatuvchidan faol ijodkor pedagogga aylantiradi.

**Ikkinchi**dan, kasbiy-kreativ kompetensiya to'rtta o'zaro bog'liq komponentdan iborat: motivatsion-qadriyatli, kognitiv-innovatsion, amaliy-texnologik va reflektiv-rivojlantiruvchi. Ularning har biri alohida e'tibor va maqsadli rivojlantirishni talab qiladi.

**Uchinchidan**, malaka oshirish tizimida kreativ kompetensiyaga alohida modul sifatida e'tibor qaratilishi, keys-stadi banki, raqamli platforma va kasbiy hamjamiyatlar tizimi tashkil etilishi ta'lim sifatini oshirishning muhim omili bo'la oladi.

**To'rtinchidan**, davlat va huquq asoslari fani o'zining ijtimoiy-huquqiy mohiyatiga ko'ra, o'quvchilarda nafaqat huquqiy bilim, balki fuqarolik ongi va ijodiy munosabatni shakllantirishni talab qiladi. Bu esa o'qituvchining kreativ kompetensiyasini majburiy standart sifatida belgilashni taqozo etadi.

Umuman olganda, zamonaviy ta'lim texnologiyalari orqali o'qituvchilarning kasbiy-kreativ kompetensiyasini rivojlantirish – bu nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki jamiyatda huquqiy ong, kreativ tafakkur va fuqarolik madaniyatini yuksaltirish yo'lidagi muhim qadamdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". – URL: <https://lex.uz/docs/-4312785> (murojaat sanasi: 15.04.2025).
2. UNESCO. Futures of Education: Learning to Become. – Paris: UNESCO Publishing, 2023. – P. 34–41.
3. Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967. – P. 77–85.
4. Shulman L.S. Those Who Understand: Knowledge Growth in Teaching // Educational Researcher. – 1986. – Vol. 15, No. 2. – P. 9.
5. Muslimov N.A. Kasbiy kompetentlik va pedagogik mahorat asoslari. – T.: Fan, 2015. – B. 47.
6. Herreid C.F. What Makes a Good Case? // Journal of College Science Teaching. – 1997. – Vol. 27, No. 3. – P. 165–169.
7. Barrows H.S., Tamblyn R.M. Problem-Based Learning: An Approach to Medical Education. – New York: Springer, 1980. – P. 1–20.
8. Thomas J.W. A Review of Research on Project-Based Learning. – San Rafael: Autodesk Foundation, 2000. – P. 5–18.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-yanvardagi PF-6155-son Farmoni "O'zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston-2030 strategiyasini tasdiqlash to'g'risida". – URL: <https://lex.uz> (murojaat sanasi: 15.04.2025).
10. Maslow A.H. Toward a Psychology of Being. – New York: Van Nostrand Reinhold, 1968. – P. 135–142.
11. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938. – P. 25–33.
12. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – New York: Basic Books, 1983. – P. 50–62.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son Qarori "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". – URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6981085> (murojaat sanasi: 15.04.2025).

14. OECD. TALIS 2018 Results (Volume I): Teachers and School Leaders as Lifelong Learners. – Paris: OECD Publishing, 2019. – P. 89–94.

15. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – P. 84–91.

16. Уралов, А. Б., & Бердалиева, С. Х. (2020). МОРФЕМАЛАР ТИЗИМИДА АГГЛЮТИНАЦИЯ ВА ФУЗИЯ МУНОСАБАТИ. Интернаука, (20-4), 81-82.

17. Уралов, А. Б., & Умарова, Б. Х. (2020). ТУРКИЙ ТИЛЛАРДА МОРФЕМАЛАРНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ. Интернаука, (20-4), 77-78.

18. Uralov, A. B. (2018). COMPREHENSIVE AND EXTENDED FORMS OF SUFFIXES IN UZBEK LANGUAGE. Theoretical & Applied Science, (12), 127-131.